



VOKAL IJROCHILIK KO'NIKMALARINING NAZARIY VA TARIXIY ASOSLARI

Ikromova Faramgiz

Farg'ona davlat universiteti Magistratura bo'limi

Musiqqa ta'limi yo'nalishi 2-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15321087>

Annotatsiya: Ushbu maqolada vokal san'atining kelib chiqish tarixi, uning rivojlanishi, hamda musiqada tutgan o'rni haqida atroflicha so'z boradi. Shu bilan birga vokal san'atining nazariy asoslari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: vokal, opera, libretto, diapazon, oratoriya, kantata

O'zbek musiqqa madaniyati qadim davrlardan buyon boy va serjilodir. Vokal san'ati o'zbek musiqqa san'atida muhim ahamiyat kasb etib ko'p asrlardan buyon xalqimiz qalbidan chuqur o'rin olib, rivoj topib kelmoqda. Musiqani ovoz bilan ijro etish, musiqiy asarning mazmunini qo'shiq ovozi orqali yetkazish bu vokal san'atidir. Shuni ham aytib o'tish joziki, ushbu san'at eng qadimgi san'at turlaridan biridir. Vokal bu qo'shiq, romans akapella cholg'u jo'rligida yoki jo'rsiz kuylash uchun mo'ljallangan musiqadir. Vokal mukammalligi o'z navbatida diapazonning eng quyi notadan tortib eng avj qismigacha bo'lgan notalar uyg'unligi bilan qiyoslanadi. "Vokal" so'zining asl ma'nosi bizda qadimdan mavjud bo'lgan qo'shiq, ashula degan musiqiy atamalarga to'g'ri keladi. Shunga ko'ra "vokal" tarixiy ijtimoiy, madaniy-marifiy jarayonlarning ajralmas bir bo'lagi sifatida qadim zamonlardan beri yashab kelyapti. O'zbek xalqi madaniy hayotiga XIX asrning ikkinchi yarmidan kirib kelib, san'at janrini ifodalay boshlagan vokal tushunchasi Yevropada uzoq tarixga ega bo'lib, uning negizi antik davr diniy marosimlari ijro jarayoniga borib bog'lanadi. Vokal musiqasi tarixi quyidagi muhim bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Qadimiy davrlar: Vokal musiqasi qadimiy davrlarda, xususan, Mesopotamiya, Misr va Gretsiyada paydo bo'lgan. Ushbu davrlarda diniy marosimlar va xalq bayramlarida vokal ijrochiligi keng tarqalgan.

2. O'rta asrlar: Bu davrda cherkov musiqasi, xususan, Gregorian xonandalari ijodi rivojlandi. Vokal musiqasi diniy marosimlarda asosiy rol o'ynagan va polifonik vokal asarlar paydo bo'la boshlagan.

3. Renessans davri: XV asrlarda vokal san'ati yanada rivojlandi. Polifonik uslublar keng tarqaldi, kompozitorlar, masalan, Josquin des Prez va Giovanni Palestrina kabi ijodkorlar, murakkab vokal asarlarni yaratdilar.

4. Barokko davri: XVII asrda vokal musiqasi opera va oratoriya shaklida yangi bosqichga o'tdi. Kompozitorlar, masalan, Claudio Monteverdi va Jon



Sebastian Bax, vokal musiqa yangi shakllarini yaratdilar, bu esa vokal ijro san'atining rivojlanishiga olib keldi.

5.Klassik davr: XVIII asrda Yozef Gaydn, Volfgang Amadey Mozart va Lyudvig van Betxoven kabi kompozitorlar vokal san'atini yanada rivojlantirdilar. Opera va kantata janrlari kengayib ularda vokal musiqasi ohangining xilma-xilligi oshdi.

6.Romantik davr: XIX asrda vokal musiqasi yangi ifoda shakllarini qabul qildi. Kompozitorlar, Shubert, Vagner va Verdi, vokal musiqaga chuqur hissiyotlar va dramatik elementlar kiritdilar.

7.XX asr va zamonaviy davr: Bu davrda vokal musiqasi turli janrlarga, jumladan, jazz, pop va rok kabi yangi uslublarga bo'linib ketdi.

Vokal tarixiga nazariy adabiyotlarning guvohlik berishicha, Yevropa mamlakatlarida vokalning markazi va tarixiy jihatdan eng qadimiysi Italiya hisoblanadi. Milodiy birinchi asrdan boshlab Yevropaning madaniyat markazlaridan biri bo'lgan Italiyada ilk bor masihiylik e'tiqodi, shu asosda masihiylik cherkovlari va diniy marosimlar tizimi paydo bo'ldi. Ushbu tizimda ham, asosan, so'z ritmi uyg'unligida ijro etilgandagina diniy marosim to'laqonli amalga oshadi, degan an'ana davom ettirildi. Diniy marosim shakllariga qarab yunonlar dastlab ibodatlarini musiqa jo'rligida yoki akapella tarzida ijro etganlar. Eng muhimi, ibodat marosimlari qay tarzda ijro etilishidan qat'iy nazar so'z ritm bilan uyg'unlashib kelganki, bu keyinchalik biz bugungi kunda vokal deb nomlayotgan janrga poydevor vazifasini bajargan. Bu dalil vokal san'atining asosi diniy marosimlarda kuylangan musiqalar, qo'shiqlar ekani haqida yuqoridagi fikrlarni asoslashi bilan bir qatorda, zamonaviy vokal san'atining o'chog'i nima uchun Italiya bo'lganligi tog'risidagi savollarga ham javob beradi. Shuning uchun ham, vokal tarixining umumiy tasnif etganimizda ro'yxatning boshida Italiya vokal maktabi keladi. Yevropa vokal san'atining shakllanishi va taraqqiyotida qadimgi Italyan vokal maktabi asoschilari Petrov Tozi, Jambattista Manchini, Jo'zeffo Sarlino, L.Yudoviko Sakkoni, Juliyo Kachchini (XVI-XVII asr) xizmatlari katta. Chunki vokal san'ati tarixida vokal nazariyasi va amaliyotini uyg'un holatda olib borgan shaxslar ham talaygina. Bunga misol sifatida Manuel Garsia, M.I.Glinka, F.I.Shalyapinlarni keltirish mumkin. O'zbekistonda vokal musiqasi san'atining asoslarini o'rganar ekanmiz jahon xonandalik maktablari tarixiga nazar tashlashimiz lozim.

O'zbekistonga vokal san'atining kirib kelishi. Yurtimizda dastlab vokal san'ati rus xonandalik maktabiga tayangan holda shakllana boshladi. O'ziga xosligi bilan ajralib turgan O'ziga xoslikni avaylagan holda rus xonandaligi



maktabi Italiya, Fransiya va Germaniya xonandalik maktablarining boy udumlarini o'zlashtirdi. Uning rivojiga o'z hissasini qo'shganlardan G.Lamakinni aytib o'tishimiz mumkin. U 1837-yilda yaratgan "Методу пения-1" va "Методу пения-2" asarlari, F.Evseevning 1833-yilda chop etilgan "Школа пения" asari, A.Varlamovning "Полная школа пения" asarlaridagi ko'rsatmalari zamonaviy kuylash prinsiplari bilan hamohang va chambarchas bog'liqdir. Akademik yo'nalishda barcha millat vakillari kuylay oladilar, lekin ovoz apparatini ishlatishda turli farqlar mavjud. Istedodli xonanda uchun milliy va akademik yo'nalishda kuylash muommo tug'dirmaydi. O'zbekistonda bu ikki yo'nalishda kuylagan xonandalar bor, bular xalq artistlari K.Zokirov, N.Xoshimov, S.Yarashev, S.Qobulova va boshqalar. O'zbekistonda vokal musiqasi san'atining paydo bo'lishi ulug' inqilobdan so'ng qo'shiqchilik va musiqa janrlarida yuksalish va ko'tarilish imkonlari ochilganday bo'ldi. Kuy va qo'shiqlarimizni atoliq ashulachilarimizdan Muhiddin Qori Yoqubov va rus musiqashunosi Mironov tomonidan bir necha ashulalarimiz notaga olinib chop ettirildi. Musiqa maktablaridan chiqqan talabalar Rossiyadagi musiqa texnikumlari va institutlariga jo'natila boshlandi. Yevropa ohang usullaridan ko'z yumib qo'shiq va kuylarimizni o'z ohanggiga qolishiga tirishaylik degan fikr tug'ildi. Bu to'g'rida Uspenskiyning katta tajribasi bor edi. Vokal san'ati rivojlanar ekan, opera, musiqali drama kabi yo'nalishlar rivojiga ham turtki bo'ldi. O'zbekistonda opera san'ati XIX asr oxiri, XX asr boshidan rivojlana boshladi. O'zbek operalari musiqali drama, chet el operasining ta'siri ostida yuzaga kelgan. Shuningdek Toshkentga 1894-yilda gruzin, 1907-15 yillarda italyan, tatar, rus, ozarbayjon opera gruppalari gastrolga kelishi, 1918-yildan Toshkentda rus opera teatri o'z faoliyatini boshlashi buning yaqqol isbotidir.

1918-yil iyul oyida Toshkentda ochilgan Turkiston xalq konservatoriyasi O'rta Osiyodagi birinchi musiqa maskani bo'lib, u o'sha yilning aprel oyida tashkil topgan Turkiston dorilfununing tarkibiga kirgan. 1930-yilda Toshkentda oliy musiqa maktabi ochildi oradan ikki yil o'tgach esa Toshkent davlat konservatoriyasiga aylantirildi. U yerda o'zbek qo'shiqchilarining vokal tayyorgarligi masalasi vujudga keldi. Qo'shiqlar vokal tayyorgarligi faqat O'zbekistonda musiqali teatr san'atini rivojlantirishga xizmat qiladigan Oliy kasbkorlik ta'limi olish huquqini berib qolmadi, balki sovet davridagi qo'shiqchilik ijodining asosi ham bo'ldi. Mazkur teatr sahnasida o'zbek tilida qo'yilgan birinchi operalar E.Brusilovskiyning 1937-yilda yozgan "Er Targ'in" va M.Magamayevning "Nargiz" operasidir. 30-yillarning 2-yarmidan boshlab birinchi o'zbek operalari vujudga kela boshladi. Bular S.Vasilenko va



M.Ashrafiylarning hamkorlikda yaratgan “Bo‘ron” operasi bilan R. Glier va T.Sodiqovlarning “Layli va Majnun” operalari edi. O‘zbek opera gruppasi o‘zbek musiqali teatri zaminida yuzaga kelib, aynan ushbu operalar bilan o‘z faoliyatini boshlagan. Dastlabki o‘zbek operalari o‘zbek va rus kompazitorlarining ijodiy hamkorligi natijasida, hamda O‘zbekistonda ijod qilgan rus kompozitorlarining mahalliy mavzudagi ijodida rivoj topdi. O‘zbek opera gruppasi o‘zbek musiqali teatr zaminida yuzaga kelib, o‘z faoliyatini kompozitorlar Sergey Vasilenko va Muxtor Ashrafiy hamkorlikda yaratgan “Bo‘ron” operasi bilan bog‘ladilar. Kompozitorlar bu operani 6 oy davomida ijod qilib, 1939-yilning 25-martida tugallaydilar. Operani sahnalashtirishda ancha qiyinchiliklar ham bo‘ladi. Birinchidan, bu yangi janrni sahnada ijro etishda xonandalarga noqulayliklar tug‘diradi, chunki musiqali drama bilan opera orasida katta farq bor edi. Lekin shu bilan birga, milliy o‘zbek og‘zaki an‘analari bilan bog‘liq bo‘lgan sahnalar ham ijrochilarga, ham tinglovchilarga maroq bag‘ishlaydi. Asar 1939-yilning iyunida sahna yuzini ko‘rdi. Operani sahnalashtirilishi rus va o‘zbek xalqlari orasidagi birodarlikni mustahkamlashga va ikki kompazitor Sergey Vasilenko, Muxtor Ashrafiylarning ijodiy hamkorliklarini timsoli bo‘ldi. Operaning sahna yuzini ko‘rishi, O‘zbekistonning musiqali teatr hayotida katta voqeaga aylandi. Aynan, “Bo‘ron” operasi premyerasidan so‘ng musiqiy dramatik teatr “O‘zbek opera va balet teatri” nomini olishga sazovor bo‘ldi. Operaning qisqacha mazmunini ya‘ni librettosini Komil Yashin yozgan. Operadagi asosiy qahramonlar bu-xalq. Shubhasiz, bosh qahramon xalq bo‘lganligi sababli ommaviy sahnalar muhim ahamiyatga ega, har bir pardaning avjini xalq sahnalari tashkil etadi. “Bo‘ron” operasi bilan deyarli bir vaqtda Alisher Navoiy dostoni asosida “Layli va Majnun” operasi ustida ish olib borildi. O‘zbek opera san‘ati turmush sharoitlariga ko‘ra, zamon talablari asosida asta-sekinlik bilan musiqali drama ildizida o‘z rivojini topdi. O‘zbekistonda opera san‘atining vujudga kelishi, uni rivojlanishida rus musiqa madaniyatining alohida hissasi borligini ta‘kidlab o‘tishimiz lozim. Kompazitorlar V.A.Uspenskiy, R.M.Glier, A. Kazlovskiy, G. Mushel va boshqalar o‘zbek musiqa san‘atining turli janrlarida, jumladan, opera janrida ham ijod qilganliklari sababli, o‘zbek opera san‘atini yana ham boyiganini ko‘rishimiz mumkin. O‘zbek operalarining dunyoga kelishi bu zamon talabi bo‘lib, Respublikamizning madaniy rivojiga yana bir katta qadam hisoblandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Jabborov, S.Begmatov, M.A‘zamova “O‘zbek musiqasi tarixi”. Toshkent 2018. E.Rahimov. “Vokal” Toshkent.2017.
2. Abdumannon Nazarov, Olimjon Bekov, O‘zME. Birinchi jild. Toshkent,2000y.



3. N.Xabirova. "O'zbekistonga vokal san'atining kirib kelishi, tarixi, rivojlanish bosqichlari" 37-to'plam, 3-qism.
4. J.Saidov. "O'zbek opera san'atini shakllanish asoslari" Central Asian Journal of education and innovation. December. 2022.
5. H.Orifjonov. "O'zbekistonda akademik xonandalik yo'nalishini rivojlanishi va shakllari". Theoretical and Practical Foundations of Scientific Progress in Modern Society.
6. B.Qo'ldoshboyev. "O'zbek operalari librettosi". Scientific Methodical Journal. volume 5. Issue 2. April 2024.

